



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIKNING DOLZARBLIGI VA UNING AHAMIYATI

Butayev Javlonbek

TDIU katta o'qituvchisi, tayanch doktorant

Xoliqov Muhammadali

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,

Annotatsiya

Mazkur maqolada Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Unda DXSH mexanizmlarining infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektorlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada DXSH loyihalarini amalga oshirishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tahlillar asosida DXSH loyihalari mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi. Maqola soha mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

Davlat-xususiy sheriklik, DxSH, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, hamkorlik, investitsiya, innovatsiya, barqaror o'sish, aholi farovonligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Unda DXSH mexanizmlarining infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektorlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada DXSH loyihalarini amalga oshirishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tahlillar asosida DXSH loyihalari mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi. Maqola soha mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik, DxSH, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, hamkorlik, investitsiya, innovatsiya, barqaror o'sish, aholi farovonligi.

Kirish

So'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish borasidagi dolzarb muammolarni hal etishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik — davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh)

mexanizmlarining ahamiyati ortib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va byudjet resurslarining cheklangani fonida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va boshqarish borasidagi bosim kuchaymoqda. Shu sharoitda, xususiy sektor salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beruvchi DXSh modeli taraqqiyotning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

DXSh nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki menejment, innovatsiyalar va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali davlat xizmatlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa strategik tarmoqlarda davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi loyihalar barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda DXSh institutini rivojlantirish borasida qator institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yilda "Davlat-xususiy sherikchiligi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ushbu sohani rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur maqolada davlat-xususiy sherikchiligi institutining nazariy asoslari, xalqaro tajriba, O'zbekistondagi huquqiy va institutsional muhit hamda amaldagi loyihalar tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

2024-yilda iqtisodiyotning turli sohalarida mahalliy va xorijiy investorlarlar bilan 8,9 mlrd AQSh dollarlik 129 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari bitimlari imzolandi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida aholi jon boshiga YaIM va daromadni sezilarli darajada oshirishga qaratilgan ulkan maqsadlar alohida ta'kidlandi. Davlat-xususiy sheriklik davlat xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish uchun 2030-yilga qadar 30 milliard AQSh dollarini safarbar qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, turli sohalarida DXSh loyihalarini ishlab chiqish va ushbu loyihalarni tayyorlash mexanizmini yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar qayd etildi.¹

O'zbekistonda DxSH sohasidagi huquqiy va institutsional islohotlar doirasida davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida ochiqlik, hisobdorlik va adolatli raqobat tamoyillariga asoslangan hamkorlik mexanizmlari joriy etildi. 2024-yilda Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish jarayonida xalqaro konsalting kompaniyalari, ekspertlar va donor tashkilotlar faol ishtirok eta boshladi. Natijada, O'zbekiston xalqaro DxSH reytinglarida o'z o'rnini yaxshilab bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada taqqoslash va tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, amaliy misollar asosida DxSH loyihalarining samaradorligini baholash metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, ilgari e'lon qilingan ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajriba tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi

¹ Mengnarov A.E "Davlat-xususiy sherikligi tadbirkorligini tashkil etishning uslubiy nazariy asoslari"

<https://cyberleninka.ru/article/n/davlatxususiy-sherikligi-tadbirkorligini-tashkiletishninguslubiy-nazariy-asoslari>

Davlat xususiy sherikchiligi sohasida bir qancha izlanishlar va uni rivojlantirishda ko'pgina ishlar qilingan. Shu jumladan bu sohaga o'z hissasini qoshgan olimlarlar mavjud. Ularning ishlarini sanab o'tsak:

Eduardo Engel²Ixtisosligi: DXShda iqtisodiy samaradorlik, davlat manfaatlarini himoya qilish, xavflarni taqsimlash. Bent Flybjerg³Ixtisosligi: DXSh asosidagi infratuzilma loyihalari, xavflar, loyiha boshqaruvi. Michael Klein⁴Ixtisosligi: DXSh modeli, moliyalashtirish mexanizmlari, hukumat roli. So'ng yana bir qancha o'zbekistonlik olimlarning ishlarini o'rganib chiqildi. Ulardan:

X. Mamatqulov, Prof. Obidjon Xolmuradov, Dilorom Saidova va shu kabi bir qancha olimlarning ishlari mavjud. Mazkur insonlarning qilgan ishlari orqali davlat xususiy sherigi sohalarini chuqurroq o'rganish mumkin

Natija va muhokama

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Energetika, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi strategik sohalarda olib borilayotgan bu loyihalar mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. 2024-yilning 10-dekabr holatiga ko'ra, DXSh loyihalari soni 1 145 tani tashkil etib, ularning umumiy qiymati 29,6 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Eng katta e'tibor energetika sohasiga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishga 27 milliard dollar yo'naltirilgan.⁵

1-jadval.

2023-2025 yillar kesimida amalga oshiriladigan DXSH loyihalari ko'rsatkichlari tahlili⁶

Yil	Loyihalar soni	Umumi y qiymati (USD)	O'sish (%)	Asosiy sohalar	Yirik hamkorlar	Izohlar
2023	680+	~\$9,5 mlrd	—	Energetika, Sog'liqni saqlash, Ta'lim	IFC, ACWA Power, Masdar	DXSH asosida ilk shifoxonalar, maktablar va quyosh elektr stansiyalari
2024	990	~\$18,5 mlrd	+95%	Energetika, Suv xo'jaligi,	Saudi ACWA, IFC, BAA,	25 ta yangi kelishuv (1-chorakda) —

²"The Economics of Public-Private Partnerships: A Basic Guide", "Infrastructure PPPs: Lessons from international experience" (Yale University, AQSh / Chile)

³"Megaprojects and Risk: An Anatomy of Ambition" (University of Oxford, UK / IT Universiteti, Daniya)

⁴Public-Private Partnerships: A Primer" (World Bank / Frankfurt School)

⁵Uz24.uz saytidan olingan ma'lumot

⁶ Stat.uz

				Ta'lim, Madaniyat	Janubiy Koreya kompaniyalari	\$312 mln. Energetika yetakchi soha
2025 (proгноз)	1200+	~\$24–26 mlrd	+30–40%	Transport, Kommunal xizmatlar, Sog'liqni saqlash	Xitoy, BMT, IBR, Janubiy Koreya	Yillik DXSH majburiyatlar limiti: \$5,5 mlrd. Energetikada chiqindi-energiya loyihalari

Jadvalga xulosa. 2023–2025 yillar oralig'ida O'zbekistonda DXSH sohasida sezilarli o'sish kuzatildi. Loyihalar soni va qiymati ortib, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilma kabi sohalarda yirik loyihalar amalga oshirildi. Davlat tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun yillik majburiyatlar limiti belgilandi. Kelajakda esa DXSH orqali yirik investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni davom ettirish rejalashtirilgan.

2-jadval

Mamlakatdagi DXSH bo'yicha yetakchi sohalar reytingi ⁷

Sohalar	Miqdori	Asosiy ko'zlangan maqsadlar
Energetika	27,3 mlrd \$	mamlakat energiya ta'minotini yaxshilashga qaratilgan
Kommunal xizmatlar	1,5 mlrd \$	infratuzilma rivoji uchun ajratilgan mablag'lar
Ta'lim	248,7 mln \$	ta'lim sifatini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun
Transport	94,2 mln \$	logistika tizimini rivojlantirishga qaratilgan
Sog'liqni saqlash	57.5 mln \$	tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	123,9 mln \$	ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida
Qurilish	22,8 mln \$	yangi binolar va inshootlar qurish uchun
Madaniyat	15,6 mln \$	madaniy ob'ektlar va tadbirlar uchun

⁷ projects.ppp.mf.uz DXSH loyihalar reyestri sayti

Jadval yuzasidan umumiy xulosa. Bundan ko‘rinib turiptiki mamlakat miqyosida turli sohalarga e‘tibor kuchaymoqda, DXShni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar amalga oshmoqda. Ko‘p rivojlangan mamlakatlar nazarida bu balki pas ko‘rsatgich bo‘lishi mumkin. Lekin qisqa vaqt ichida juda katta investitsiyalar amalga oshirilyapti, kichik biznes bo‘yicha raqobat faoliyatlari amalga oshirilmoqda. Jadal o‘sh natijasida yaqin 5-10 yilda juda katta e‘tibor markazida bo‘lishi ehtimoli mavjud.

2030-yilga qadar: DXSh loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsad qilingan.

Xulosa

Davlat-xususiy sheriklik — bu davlat va xususiy sektor o‘rtasida infratuzilma loyihalari yoki jamoat xizmatlarini amalga oshirish maqsadida tuziladigan uzoq muddatli hamkorlik shaklidir. Ushbu model iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, byudjet xarajatlarini kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik sohasi dunyo bo‘yicha, shu jumladan O‘zbekistonda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. U orqali sog‘liqni saqlash, ta‘lim, transport, energetika kabi muhim yo‘nalishlarda ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. DXSh nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki xususiy sektorning innovatsion yondashuvlari va boshqaruv tajribasidan foydalanishga ham zamin yaratadi.

Biroq, bu sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun huquqiy asoslarning mukammalligi, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga rioya qilish, shaffof tender jarayonlari va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, DXSh mexanizmi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning samarali vositasi bo‘lib, u davlat va xususiy sektor o‘rtasida o‘zaro ishonchga asoslangan uzoq muddatli hamkorlikni ta‘minlaydi. Bu modelni to‘g‘ri va oqilona qo‘llash orqali barqaror taraqqiyotga erishish mumkin

O‘zbekistonda DXSH — iqtisodiy modernizatsiya, infratuzilma rivoji va davlat xizmatlarining sifatini oshirishda strategik vosita sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu modelni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun institutsional mustahkamlash, siyosiy barqarorlik, xavflarni baholash tizimi va xususiy sektor ishonchini oshirish dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengnarov A.E "Davlat-xususiy sherikligi tadbirkorligini tashkil etishning uslubiy nazariy asoslari
2. DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDA MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM NAZARIY-USLUBIY MASALALARI Toshkent Amaliy fanlar Universiteti, Umumiy iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi, <https://doi.org/10.5281/zenodo.13335253>
3. Mengnarov A.E "Davlat-xususiy sherikligi tadbirkorligini tashkil etishning uslubiy nazariy asoslari" <https://cyberleninka.ru/article/n/davlatxususiy-sherikligi-tadbirkorligini-tashkiletishninguslubiy-nazariy-asoslari>
4. "The Economics of Public-Private Partnerships: A Basic Guide", "Infrastructure PPPs: Lessons from international experience" (Yale University, AQSh / Chile)

5. "Megaprojects and Risk: An Anatomy of Ambition" (University of Oxford, UK / IT Universiteti, Daniya)
6. "Public-Private Partnerships: A Primer" (World Bank / Frankfurt School)

Foydalanilgan saytlar ro'yxati

1. Gov.uz saytidan olingan ma'lumot
2. Uz24.uz saytidan olingan ma'lumot
3. Stat.uz saytidan olingan ma'lumot
4. ppp.mf.uz saytidan olingan ma'lumot
5. projects.ppp.mf.uz DXSH loyihalar reyestri sayti